


<https://yuz.uz/news/abdulhamid-cholpon-va-zamon?view=tilga-ixtiyorsiz--elga-etiborsiz-bolmaylik>

Abdulhamid Cho'lon va zamon

Biz ham Cho'lonidan qo'l tortmaymiz. Cho'lon yangi adabiyotda yangi shakllarga asos soldi. Mistik adabiyot o'rniga zamonaviy ziyrak adabiy didga javob beruvchi ajoyib she'rlarni taqdim etdi. Bugungi yosh avlod uning jozibali texnikasini, sodda tilini, g'aroyib uslubini sevadi va undan ko'p ajoyib narsalarni qabul qiladi.



Abdulhamid Cho'lon juda qisqa, bor-yo'g'i qirq yil umr ko'rdi. Uning hayot yo'li bir-biridan tubdan farq qiluvchi, tarixiy voqealarga boy Turkistondagi siyosiy va ma'naviy o'zgarishlar ko'zga tashlangan ikki davr chegarasida o'tdi. Agar ularning birinchisi o'zida taraqqiyparvar g'oyalari bilan turkistonliklarning milliy o'zligini uyg'otgan eng ziyoli kuchlarni jamlagan jadidchilikning yuzaga kelishi va rivojlanishi bilan ifodalangan bo'lsa, ikkinchisi uni yo'q qildi va "baxtli kelajak" haqidagi tasavvurlarni ostin-ustin qilib tashladi, jamiyatni o'zgartirib, sanoatni yuksaltirish va "madaniy inqilob" niqobi ostida fojeali voqealarga yo'l ochdi.

Dastlabki paytlarda qudratli hayot to'liqini Abdulhamid Cho'lponni mavhumlik girdobidan olib chiqib, keng xalq ommasining she'riyatdagi qahramoniga aylantirdi. Iste'dod uni yuksak cho'qqilarga olib chiqdi, lekin tez orada u jamiyatning ovloq joylariga ulotirildi. Uning murakkab hayoti zamon taloto'plarida yanchilgan taqdirlardan biri edi. Cho'lpon shaxsini bilish va uni oxirigacha tushunish, betakrorligini his qilish, buyukligi va qudratini anglab yetish uchun u qanday davrda yashaganini hisobga olish zarur.

Biz o'rganayotgan muammoga shu nuqtai nazardan yondashib Cho'lpon yashab faoliyat yuritgan davrni ikki bosqichga bo'lish mumkin: XX asr boshlaridan 20-yillar o'rtalarigacha va 20-yillar o'rtalaridan uning taqdiri fojeali yakun topgan 1937 yilgacha.

Dastlab taqdir uni rosa siyladi. Uning iste'dodi jadidchilik g'oyalari bilan birga kamolga yetdi va hayotga tatbiq etildi. Abdulhamidning tug'ilishi ushbu oqim shakllangan vaqtga to'g'ri kelgan.

XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi ijtimoiy va siyosiy jarayonlar ta'sirida shakllangan ijtimoiy fikr o'z davrining eng taraqqiyparvar kishilarini jadidchilik maydoniga olib chiqdi. Ular orasida Fitrat, Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqalar qatorida nafaqat shoir, balki faol ma'rifatchi, ilk muxtor respublikalarning tuzilishidagi ishtirokini hisobga olganda siyosiy arbob ham bo'lgan Abdulhamid Cho'lpon bor edi.

1917 yilgi jadid gazetalar – “Kengash”, “Turon”, “Turk eli” va boshqalar Turkiston xalqlarining o'z taqdirini o'zi belgilash shakllariga daxldor nihoyatda qizg'in bahslardan dalolat beradi. Turkiston taraqqiyparvarlarining dastlab ma'rifatchilik, so'ngra siyosiy harakati keng quloch yozgan 1914-1917 yillarda Abdulhamid Cho'lpon ijodi ham gullab-yashnadi. 16 yoshida “Adabiyot nadur?” maqolasini yozgan muallif jadidchilik vujudga keltirgan yangi adabiyot

asoschilaridan biriga aylandi. Biroq uning qiziqishlari faqat adabiyot va teatr san'ati bilan cheklanmagan. 1914 yili "Sadoi Farg'ona"da e'lon qilingan "Vatanimiz Turkistonda ziroat va dehqonchilik", "Vatanimiz Turkistonda temir yo'llar", "Oyina" jurnalida chop etilgan "Andijonda yangi bank" maqolalarida uning iqtisodiyot sohasidagi chuqur bilimi namoyon bo'lgan. Abdulhamid Cho'lpon o'z maqolalarida Rossiya, Yevropa va Amerikaning taraqqiyot tajribasidan misollar keltirib, Turkistonning bo'lajak iqtisodiyoti va uning rivojlanish yo'llari haqida mulohaza yuritgan. Cho'lponga siyosat ham begona bo'lmagan. 1917 yili "Turon" gazetasida e'lon qilingan "Ish vaqti – ishlash vaqti", 1918 yili "El bayrog'i" gazetasida chop etilgan "Umid sizdan" maqolalarida uning bolshevizmga salbiy munosabati va Turkiston muxtoriyatini qo'llab-quvvatlashi aks etgan. U nafaqat publitsist, balki amaliy siyosatchi ham bo'lgan, Turkiston va Boshqird muxtoriyatlarida faol ishtirok etgan. Qo'qondagi Turkiston muxtoriyati tor-mor keltirilgach, ko'plab jadidlar yurtni tark etishga majbur bo'lganlar, u Ubaydulla Xo'jaev, Abdulhamid Orifov, Mirmuhsin va boshqalar bilan birga Boshqird sovetlari kichik tashkilotida kotib bo'ldi va uning axborot markazida faoliyat yuritdi. Keyin ko'plab taraqqiyparvarlar qatori maorif sohasida ishladi.

Umuman, Turkistonning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy va madaniy hayotida bu davrda kechgan ziddiyatli jarayonlar Cho'lpon taqdirini ham chetlab o'tmadi. Uning uchun murakkab vaqtlar kelgandi. Bir tomondan, jadidlarning ma'rifatchilik faoliyati o'zining yuksak cho'qqisiga ko'tarildi, ularning katta qismi mamlakatda qolib, madaniyat muassasalari, maktablar, oliy o'quv yurtlari va teatrlarda ishlashda davom etdi. Aholi savodxonligining keskin oshishi, texnologik ta'minotning o'sishi, ilmiy muassasalarning paydo bo'lishi bilan O'zbekiston madaniyati taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Boshqa tomondan, boshqaruvning totalitar tizimi mustahkamlanib borishi madaniy jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. "Madaniy inqilob"ning

joriy etilishi, kadrlarning proletarlashtirilishi eski milliy kadrlarning qoralanishiga olib keldi. Sovet hokimiyatining o'ylanmay qilingan islohotlari madaniyatda o'nglab bo'lmas holatlarni keltirib chiqardi. Boshlangan qatag'onlar, birinchi navbatda, ziyolilarga qaratildi, bu esa ma'naviy hayotga ulkan ziyon yetkazdi.

“Shaklan milliy, mazmunan sotsialistik” bo'lgan proletar adabiyotning yaratilishi yozuvchilarni o'z g'oyalarini sun'iy ravishda hosil qilingan qoliplarga solishga majbur etdi. Bu yerda 1923 yildayoq L.Troskiy “Adabiyot va inqilob” asarida “proletar madaniyat bo'lmagan va bo'lmaydi ham” deb yozganini esga olib o'tish o'rinli. Aks holda dehqonlar adabiyoti va ziyolilar adabiyoti haqida masala yuzaga keladi. Cho'lpon ijodi, albatta, hech qanaqasiga proletar adabiyot qatoriga kirmagan.

Yuqoridan kelgan ko'rsatma asosida Cho'lponga qarshi ayovsiz siyosiy ta'qib amalga oshirilgan. Zarif Bashir, Ayn, Otajon Hoshimov, Sotti Husayn, Tregulov, S.Pismenniy, A.Arsharuni o'zlarining tanqidiy maqolalarida unga millatchi shoir, “pessimistik kayfiyatdagi ziyolilar shoiri” tamg'asini bosdilar. Partiyaning mas'ul xodimi S.Pismenniy fikricha, 1924 yildayoq adabiyot vakillari orasida, umuman, jamiyatda ikkita lagerga bo'linish xavfi vujudga kelgan, ya'ni ko'ngil amri bilan ijod qilganlar va barcha narsada partiya belgilab bergan yo'lga amal qilganlar.

Bu haqda Cho'lpon qayg'urib yozadi: “Har doim tirnoq ostidan kir topish mumkin, qancha ko'p qidirsang, shuncha ko'p chiqadi. Ammo odamga hayot faqat shuning uchun ato etilmagan. Ayniqsa, pedagoglar Turkistonning oqni qoradan ajrata olmaydigan mahalliy aholisiga nimanidir isbotlashga uringan holda bir-birining aybini qidirib umrini behuda o'tkazishmoqda – bu jinoyatdir”.

Cho'lponni tanqid qilish nafaqat respublika miqyosida, balki SSSR darajasida davom ettirilgan. Ommabop bo'lgan "Новый Восток" jurnalida 1929 yili partiyaning mas'ul xodimi A.Arsharunining "O'rta Osiyo badiiy adabiyoti haqida qaydlar" maqolasi chop etilgan, u Cho'lponning "marksistcha" adabiyotshunoslik talablariga javob bermaydigan ijodi tahliliga bag'ishlangan. O'sha paytda Cho'lponni himoya qilishga jur'at etgan yosh yozuvchi Oybekni ham ayovsiz tanqid ostiga olishgan. Muallifni, ayniqsa, Oybekning "Qizil O'zbekiston" gazetasidagi "... Cho'lpon o'zining kelib chiqishi, tarbiyasi va intilishlari bilan bu narsadan yiroqdir", degan so'zlari g'azablantirgan. Boz ustiga, Oybek uni ahamiyatiga ko'ra Pushkin bilan bir darajaga qo'yib, Cho'lpon va Pushkinni tenglashtirishga jur'at etgan:

"... Nahotki, biz hozirgi adabiy talablarga javob bermaydi deb hisoblab Cho'lpondan voz kechamiz? Menimcha, bu xatodir... Shoirlarni qulog'idan tortib proletar shoirga aylanishga majburlab bo'lmaydi...

Bizning zamonaviy adabiy talablarimizga javob bermaydi deb Cho'lpondan uzoqlashishimiz kerakmi? Menimcha, bu yanglish harakat. Agar biz hozir rus o'rtoqlarimizga qarasak, ular Pushkinni qanchalar sevishlarini ko'ramiz. Uni hamma o'qiydi va yaxshi ko'radi. U inqilobdan keyin ham Pushkinligicha qolgan. Rus adabiyotida oliy o'rinni egallagan. Pushkin proletar shoir bo'lmagan, u pomeschik va hukmdorlar shoiri bo'lgan va uning dunyoqarashi zamonaviy davrga mos kelmaydi, lekin nega uni bunchalar yoqtirishadi? Negaki u go'zal asarlar yaratgan, rus she'riga ajoyib badiiy obrazlarni taqdim etgan, bu orqali rus adabiyotining o'lmas boyliklarini yaratgan. Ruslar hech qachon ushbu buyuk adabiy merosdan voz kechishmaydi.

Biz ham Cho'lpondan qo'l tortmaymiz. Cho'lpon yangi adabiyotda yangi shakllarga asos soldi. Mistik adabiyot o'rniga zamonaviy ziyrak adabiy didga

javob beruvchi ajoyib she'rlarni taqdim etdi. Bugungi yosh avlod uning jozibali texnikasini, sodda tilini, g'aroyib uslubini sevadi va undan ko'p ajoyib narsalarni qabul qiladi.

Cho'lponning g'oyalari emas, balki u tomonidan yaratilgan original she'riy obrazlar o'qiladi va undan hech kim voz kechmaydi".

Madaniyatli kishining buyuk mutafakkirlarga behurmat munosabatda bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmasligi haqidagi fikr Oybek maqolasining leytmotivi sifatida yangragan. U Cho'lponni aynan shunday shaxs deb bilgan. Bunday tenglashtirishdan g'azab otiga mingan A.Arsharuni Oybek agar Cho'lponni A. Pushkin bilan solishtirishga jur'at etgan bo'lsa, bu uning A.Pushkin ijodini yaxshi bilmasligidan, deya ayblagan. Ehtimol Arsharuni Pushkin asarlarini yaxshi bilgandir, ammo Cho'lpon ijodidan umuman bexabar bo'lgan. Bu o'rinda Germaniyada tahsil olgan, "Ko'mak" jurnalini chop ettirgan turkistonlik talabalar jurnal sonlaridan birida Cho'lpon Shekspir bilan taqqoslangan maqolani e'lon qilishganini keltirib o'tish joiz bo'lur edi. Maqola muallifi yozadi: "Men Shekspir lirikasi va Cho'lpon she'riyati o'rtasidagi farqni qanchalik qidirmay, uni topa olmadim. Men Cho'lponning "Uyg'onish"ini qayta-qayta o'qiganman. Shekspirni o'qiganman. Nihoyat, Shekspir – bu Cho'lpon yoki Cho'lpon – bu Shekspir, degan xulosaga keldim".

Biroq bunday munosabat shoirning ahvolini yanada og'irlashtirgan. Mustaqil fikriga ega bo'lish, erkin ishlash, ayniqsa, o'sha davr hukmron mafkurasiga to'g'ri kelmaydigan mulohazalarni bildirish inson hayoti uchun nihoyatda xatarli edi. Cho'lpon yuz berayotgan holatlarni juda yaxshi anglagan. Bundan uning she'rlari dalolat berib turibdi. Chunonchi, u "Yaproqlar" she'rini O'zbekistonda emas, balki Turkiyada e'lon qilgan. Vatanida buning imkoni yo'qligini tushungan, degan fikr keladi xayolga:

Qarg'alar bog'larda qag'lashib qoldilar,

Bilmadim, kimlarning qismati uzilur?

Yoproqqa yopishib, bir changal soldilar,

Bilmadim, kimlarning umidi yo'q bo'lur?

Ey sovuq ellardan muz kiyib kelg'onlar,

U qo'pol tovshingiz qorlarda yo'q bo'lsin!

Ey menim bog'imdan mevamni terg'onlar,

U qora boshingiz yerlarga ko'mulsin!

Shoirning bu qisqa satrlarida alam-iztiroblar, xalqqa begona bo'lgan e'tiqodini majburlab tiqishtirganlar, poymol etilgan taqdirlar, Vatan haqida qayg'urish ifodalangan. O'n yillar mobaynida Cho'lpon tanqid tig'lari ostida yashadi. Oddiy jurnalistdan tortib respublika rahbari Akmal Ikromovgacha uning ijodi haqida salbiy munosabat bildirdi.

Nihoyat, 1937 yil oxirida Cho'lpon "xalq dushmani" deb e'lon qilindi. Siyosiy tuzum uning Ahmad Zakiy Validiy bilan do'stligini, Boshqirdistonning milliy mustaqilligi uchun kurashdagi yordamini, Turkiston muxtoriyatidagi faol ishtirokini, jadidlar safida turib ochiq-oydin ifodalagan siyosiy qarashlarini unutmadi va kechirmadi. Ehtimol uning "aybi" eng mashhur va xalqaro miqyosda e'tirof etilgan o'zbek shoiri bo'lgani va xalq, ayniqsa, yoshlar orasidagi obro'-e'tiborini hech narsa tushira olmaganida bo'lgandir. Shaxsning buyukligi har doim o'z davrini ortda qoldirgan. Taqdir taqozosi bilan ular yo ko'klarga ko'tariladi, yo jismonan yo'q qilinadi. Ammo Abdulhamid Cho'lpon

xotirasini yo‘qotishning iloji yo‘q edi, chunki uning she‘rlari, g‘oyalari, xalqiga bo‘lgan muhabbati barhayotdir.

Dilorom ALIMOVA,

O‘zR FA Tarix instituti bosh ilmiy xodimi